

**Jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi  
“Daromadli” muddatli bank omonati  
SHARTNOMASI**

20 \_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdik.

**1-§. Shartnoma predmeti**

1. Bank Omonatchining \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so‘m pul mablag‘ini qabul qildi va uni 20606000..... omonat hisobvarag‘iga omonat shartlariga muvofiq joylashtirdi.

2. Omonatchiga \_\_ seriyali \_\_\_\_\_-son Omonat daftarchasi ochildi va unda yuqorida ko‘rsatilgan hisobvaraqqa kirim qilingan omonat qiymati va boshqa tegishli ma‘lumotlar o‘rnatilgan tartibda aks ettiriladi.

**2-§. Omonat shartlari va hisob-kitoblar tartibi**

3. Omonat muddati 24 oy, ya‘ni omonatga pul mablag‘i qo‘yilgan sana: 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_, omonatni qaytarish sanasi: 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_.

4. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik 17 foizlik stavkada daromad hisoblanadi.

5. Ushbu Shartnoma bo‘yicha jalb qilingan omonatning foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar o‘zgarmaydi.

6. Omonatga dastlabki 12 oy davomida har oyda bir marta qo‘shimcha badal kiritish mumkin.

7. Omonat bo‘yicha foiz omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab omonatni Omonatchiga qaytarib beriladigan kungacha hisoblanadi.

Omonatchining omonat hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida omonatdagi pul mablag‘idan Bank foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

8. Omonat bo‘yicha foiz \_\_\_\_\_  
(har oyda yoki omonat muddati tugagandan so‘ng kapitalizatsiyasiz)

to‘lab beriladi.

9. Omonat muddati tugagandan so‘ng omonat Omonatchiga qaytariladi.

Agar omonatni qaytarish dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, omonat keyingi bank ish kunida qaytarib beriladi.

10. Agar Omonatchi omonatni muddati tugamasdan qaytarmoqchi bo‘lsa, u bu haqda Bankni omonatni olishni mo‘ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda shartnomaning amal qilishi to‘xtatiladi, omonat muddatidan oldin qaytariladi va omonat saqlangan har 6 oyga hisoblangan foiz to‘liq to‘lab beriladi. Omonatning qolgan muddatiga hisoblangan foiz bekor qilinadi va to‘lanmaydi. Omonat muddati davomida to‘langan foizning ortiqcha qismi mavjud bo‘lsa, u omonat mablag‘idan ushlab qolinadi.

11. Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, mazkur Shartnoma talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘i ochiladi. Omonat va u bo‘yicha hisoblangan foiz, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘idagi shaxsiy hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

**3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

12. Bank Omonatchidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq omonatni rasmiylashtirishda taqdim etilishi zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilish va olish huquqiga ega.

13. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) omonatni, Bankni kamida bir oy oldin ogohlantirgan holda muddatidan oldin qaytarish so'ralganda, qaytarib berish;

b) omonatni sir saqlash va u bo'yicha ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda taqdim etish;

v) Omonatchining omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar Bank tomonidan to'xtatib qo'yilganda, amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;

g) Omonatchining kredit va mikroqarz bo'yicha qarzdorligini so'ndirish uchun uning omonat hisobvarag'idan mablag' Bank tomonidan Omonatchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma yuborish.

14. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

a) omonatni ishonchli vakili orqali ham tasarruf etish;

b) omonatni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsga vasiyat qilish.

15. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) pasport ma'lumotlari va ro'yxatdan o'tgan joyi o'zgariganda o'zgarish sanasidan boshlab 10 kun ichida Bankka yozma xabar berish;

b) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq so'ralgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

16. Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

#### **5-§. Alohida shartlar**

17. Ushbu Shartnoma omonat Bankka qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

18. Mazkur Shartnoma 13-bandining "v" va "g" kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga \_\_\_\_\_

*(Omonatchi tegishlisini tanlaydi: shaxsan topshirish, pochta orqali jo'natish, elektron pochtdan jo'natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali orqali jo'natish)* orqali topshiriladi. Omonatchi xabarnoma yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega. Bunda Omonatchidan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning omonat hisobvarag'i bo'yicha yig'majildida saqlanadi.

Xabarnomani Omonatchiga yetkazish usuli o'zgarganligi munosabati bilan mazkur Shartnomaga o'zgartirish kiritish talab etilmaydi.

19. Bank mazkur shartnoma shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

20. Omonatning qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida" qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

21. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

22. Tomonlar barcha kelishmovchilik va nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.

23. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi, uning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

### 6-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank:  
Manzili: \_\_\_\_\_  
Tel.: \_\_\_\_\_ Bank kodi: \_\_\_\_\_  
Bank hisobvarag'i: \_\_\_\_\_  
Boshqaruvchi: \_\_\_\_\_  
(*Muhr o'rni*)

Omonatchi:  
Manzili: \_\_\_\_\_  
Tel.: \_\_\_\_\_  
Pasport: seriya \_\_\_№\_\_\_ qachon berilgan \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(*imzo*)